



# 2021-2027 YILLARDAGI O'ZBEKISTON UCHUN KO'P YILLIK INDIKATIV DASTUR (KYID)



# Mundarija

|   |           |
|---|-----------|
| <b>Muqaddima</b> .....  | <b>3</b>  |
| <b>1   Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik</b> .....  | <b>5</b>  |
| 1.1 Dasturlash uchun asoslar .....  | 6         |
| 1.2 Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorligining ustuvor yo'nalishlari .....   | 9         |
| 1.3 KYIDning davom etish muddati va sinxronizatsiya imkoniyati .....  | 12        |
| <b>2   Samarali boshqaruv va raqamli transformatsiya</b> .....  | <b>15</b> |
| 2.1 Demokratik boshqaruv va qonun ustuvorligi .....   | 16        |
| 2.1.1 Ustuvor sektorga tegishli aniq maqsad .....   | 16        |
| 2.1.2 Kutilayotgan natijalar .....  | 16        |
| 2.2 Davlat xizmatlarini yaxshilash imkoniyatlari .....  | 18        |
| 2.2.1 Ustuvor sektorga tegishli aniq maqsad .....   | 18        |
| 2.2.2 Kutilayotgan natijalar .....  | 18        |
| <b>3   Inklyuziv, raqamli va yashil o'sish</b> .....  | <b>21</b> |
| 3.1 Raqamli «yashil» o'tishni qo'llab-quvvatlash .....  | 22        |
| 3.1.1 Ustuvor sektorga tegishli aniq maqsad .....   | 22        |
| 3.1.2 Kutilayotgan natijalar .....  | 22        |
| 3.2 Muvofiq ish o'rinlari va raqamli savodxonlik uchun ko'nikmalarni rivojlantirish .....   | 23        |
| 3.2.1 Ustuvor sektorga tegishli aniq maqsad .....   | 23        |
| 3.2.2 Kutilayotgan natijalar .....  | 24        |
| <b>4   Aqlli ekologik toza agro-oziq-ovqat sektorini rivojlantirish</b> .....   | <b>26</b> |
| 4.1 Agro-oziq-ovqat siyosati asoslari va maslahat xizmatlari .....  | 27        |
| 4.1.1 Ustuvor sektorga tegishli aniq maqsad .....   | 27        |
| 4.1.2 Kutilayotgan natijalar .....  | 28        |
| 4.2 Barqaror, aqlli va ishonchli qishloq turmush tarzi vositalari .....   | 29        |
| 4.2.1 Ustuvor sektorga tegishli aniq maqsad .....   | 29        |
| 4.2.2 Kutilayotgan natijalar .....  | 29        |
| 4.3 Yevropa guruhi tashabbusi (YEGT) – Zamonaviy va barqaror agro-oziq-ovqat sektori va ishonchli qishloq turmush tarzi vositalarini qo'llab-quvvatlash ..... | 30        |
| <b>5   Qo'llab-quvvatlash choralarini</b> .....   | <b>34</b> |
| 5.1 Fuqarolik jamiyati manfaatiga javob beradigan chora-tadbirlar .....   | 35        |
| 5.2 Hamkorlik qilish mexanizmi .....  | 36        |
| <b>6   Moliyaviy tahlil</b> .....   | <b>38</b> |

# Muqaddima

Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar mamlakat mustaqillikka erishgan 1991-yildan buyon barqaror rivojlanib bormoqda.

Ular 2016-yildan buyon faollashdi, chunki mamlakatdagi siyosiy o'zgarishlar yanada yaqinroq xalqaro hamkorlikka yo'l ochdi, sarmoya va o'sish uchun sharoit yaxshilandi. 2017 yildan beri Yevropa Ittifoqi yanada inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishish va fuqarolar hayotini yaxshilash uchun muhim bo'lgan dadil islohotlarni qo'llab-quvvatlamoda.

2018-yilda Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston Respublikasi Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim (KShHTB) bo'yicha muzokaralarni boshladi, bu bizning munosabatlarni zamon talablariga asosan muvofiqlashtirishga va chuqurlashtirishga manfaatdorligimizni namoyish etadi.

Amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarni e'tirof etgan holda, 2021-yil 10-aprelda mamlakatga GSP+ maqomi berildi va bu yangi iqtisodiy va savdo imkoniyatlarini ochib berdi. Shuningdek, bu O'zbekistonga islohotlar uchun yangi turtki berdi va Yevropa Ittifoqi bilan boshqaruv, atrof-muhit, inson huquqlari va mehnat huquqlari bo'yicha keyingi siyosiy muhokamalarni ko'zda tutadi.

Ushbu nashr Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorlik bo'yicha yangi Ko'p yillik indikativ dasturini (KYID) taqdim etadi. Uning maqsadi - O'zbekistonning yangi Milliy taraqqiyot strategiyasida taqdim etilgan islohotlar dasturini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashni davom ettirishdan iborat. Bu Yevropa Ittifoqining "Yashil Bitim" va raqamlashtirish, yoshlar uchun barqaror ish o'rinlarini yaratish, shu bilan birga davlat boshqaruvini takomillashtirish kabi maqsadlariga mos keladi. Yevropa Ittifoqining "Global Gateway" tashabbusiga, Barqaror Rivojlanish uchun Yevropa Ittifoqining yangi Investitsiya Fondi orqali salohiyatni oshirish va investitsiyalarni bog'liqligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Biz munosabatlarimizni chuqurlashtirish, kuchlarni birlashtirish hamda O'zbekiston va uning fuqarolarining farovonligiga hissa qo'shayotgan barqaror va inklyuziv taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashni itozorlik bilan kutamiz.



**Sharlotta Adrian,**  
Yevropa Ittifoqining  
O'zbekistondagi Elchisi



## 1.1 Dasturlash uchun asoslar

Yevropa Ittifoqi O'zbekistonda 2017 yildan buyon amalga oshirilayotgan islohot, transformatsiya va integratsiya jarayonlarini to'liq qo'llab-quvvatladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev hukumati 2016 yil dekabr oyida o'z vazifasiga kirishganidan buyon davlat institutlari vadavlat korxonalarini isloh qilishga, bozor iqtisodiyotiga barqaror o'tishga, fuqarolarning faolligini oshirishga, inson kapitaliga sarmoya kiritishga, ish o'rinlarini yaratishga, xorijiy investitsiyalar va nou-xaularni jalb qilishga, mintaqaviy hamkorlik va global umuminsoniy qadriyatlarni qo'llab quvvatlash bo'yicha yangilangan majburiyatlarga qaratilgan dadil va ulkan islohotlar dasturini boshladi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi davlat va uning fuqarolari o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan milliy strategiya va rejalar majmuasini asos qilib oladi. Aksariyati 2030 yilgacha mo'ljallangan ushbu rejalar samarali va mas'uliyatli davlat xizmatlarini ko'rsatish, ochiq va inklyuziv "yashil iqtisodiyot"ga o'tish va fuqarolar hayotini yaxshilashga qaratilgan. O'zbekiston 2020 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga o'zining birinchi Ixtiyoriy milliy tahlilini taqdim etgan holda 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibini to'liq mahalliyashtirdi va O'zbekiston 2018 yilda ratifikatsiya qilgan Iqlim bo'yicha Parij bitimini amalga oshirish uchun o'zining Milliy miqyosda belgilangan hissalarini ishlab chiqdi.

Islohotlar dasturi ochiqlik va imkoniyatlarning yangi davrini va'da qiladi va zamonaviy davlat, barqaror o'sish va iqtisodiy o'zgarishlarga ustuvor ahamiyat beradi. Mustahkam iqtisodiy o'sish farovonlikning oshishini ta'minladi. Shunga qaramay, muammolar mavjud, ayniqsa, yuqori darajadagi siyosat ustuvorliklarini joylarda harakatlarga aylantirishda. Ijtimoiy qiyinchiliklarga, iqtisodiy o'sishning sekinlashishiga va tengsizlikning kuchayishiga olib kelgan COVID-19 pandemiyasi tufayli bu muammolarga alohida e'tibor qaratildi.

Milliy rivojlanish rejasining 2021 yil oktabr oyida yakunlanishi arafasida, qo'shma Yevropa mamlakatlari konteksti va siyosat tahlili tayyorlandi, jumladan, COVID-19 pandemiyasining ta'sirini tushunish uchun. Dasturlash jarayonida fuqarolik jamiyati bilan keng ko'lamli

maslahatlar o'tkazildi, jumladan, Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi bilan uchrashuvlar.

O'zbekistonning milliy va tashqi siyosat maqsadlari tinchlik, xavfsizlik, umuminsoniy huquqlar, demokratiya va barqaror rivojlanish bo'yicha umumiy qarashlarga ega Yevropa Ittifoqi maqsadlarigayaqindan mos keladi. Bu Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston hozirda muzokaralar olib borayotgan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimda (EPCA) o'z aksini topadi. Kelajakda EPCA O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan yaqinligini mustahkamlaydi va siyosat va siyosiy muloqotlar orqali umumiy qadriyatlarni o'rnatishga yordam beradi.

O'zbekistonning milliy va tashqi siyosat maqsadlari tinchlik, xavfsizlik, umuminsoniy huquqlar, demokratiya va barqaror rivojlanish bo'yicha umumiy qarashlarga ega Yevropa Ittifoqi maqsadlarigayaqindan mos keladi.

**Yevropa Ittifoqining bog'lash strategiyasi (2018)<sup>1</sup> va Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha strategiyasi (2019)<sup>2</sup>, va "Global Gateway" Strategiyasi** Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorligi ustuvorliklarini to'ldiradigan tegishli va istiqbolli kun tartibini belgilaydi. Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorligini kuchaytiruvchi yana bir element bu 2021 yil 10 aprelda berilgan GSP+ maqomidir. Bu O'zbekistonga o'z islohotlarini davom ettirish uchun yangi rag'batlar beradi va boshqaruv, atrof-muhit,

O'zbekistonning milliy va tashqi siyosat maqsadlari tinchlik, xavfsizlik, umuminsoniy huquqlar, demokratiya va barqaror rivojlanish bo'yicha umumiy qarashlarga ega Yevropa Ittifoqi maqsadlarigayaqindan mos keladi

<sup>1</sup> YEVROPA PARLAMENTI, KENGASHI, YEVROPA IQTISODIYOT VA IJTIMOY QO'MITASI, MINTAQLAR QO'MITASI VA YEVROPA INVESTISIYA BANKIGA QO'SHMA MUROJAAT Yevropa va Osiyoni bog'lovchi – Yevropa Ittifoqi strategiyasi uchun qurilish bloklari - JOIN/2018/31, 15.5.2019 yil yakuni.

<sup>2</sup> YEVROPA PARLAMENTI VA KENGASHIGA QO'SHMA MUROJAAT Yevropa ittifoqi va Markaziy Osiyo: yanada kuchliroq sheriklik uchun yangi imkoniyatlar – JOIN/2019/9, 15.5.2019 yil yakuni.

Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorligining umumiy maqsadi O'zbekiston hukumati siyosatining ustuvor yo'nalishlariga to'liq mos keladigan hamda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha YEIda belgilangan strategik ustuvorliklariga muvofiq ravishda islohotlarni amalga oshirish va ta'sirini jadallashtirishdan iborat

barqaror modernizatsiya qilishga erishish uchun milliy salohiyatni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi xamda jamiyatni demokratik normalar va inson huquqlari xalqaro standartlariga, shu jumladan xalqaro mehnat standartlariga muvofiq lashtiradi. Qo'shimcha maqsad Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorligi Yevropa Ittifoqining O'zbekistonga qo'shni Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosatiga mos kelishini ta'minlash, shu jumladan Afg'onistondagi voqealarning O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasiga ta'sirini bartaraf etishdan iborat. Harakatlar, xususan, Afg'onistondagi potensial inqirozning migratsiya va xavfsizlik sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini bartaraf etishi mumkin. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi uchun 2021-2027 yillarga mo'ljallangan ko'p yillik

inson va mehnat huquqlari bo'yicha keyingi siyosiy muhokamalarni nazarda tutadi.

Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorligining umumiy maqsadi O'zbekiston hukumati siyosatining ustuvor yo'nalishlariga to'liq mos keladigan hamda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha YEIda belgilangan strategik ustuvorliklariga muvofiq ravishda islohotlarni amalga oshirish va ta'sirini jadallashtirishdan iborat. 2019 yilgi Markaziy Osiyo bo'yicha strategiya, bu Yevropa Ittifoqining mintaqa mamlakatlarida barqarorlik va farovonlikni qo'llab-quvvatlashini hamda mintaqalararo hamkorlikni kengaytirishni hamda Yevropa Ittifoqining kengroq siyosat ustuvorliklariga mos kelishini tasdiqlaydi.

Bu barcha fuqarolarning, ayniqsa xotin-qizlar, yoshlar va nogironlar kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarning turmushi va farovonligini oshirish maqsadida iqtisodiyotni yashil va

indikativ dastur doirasida ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan dasturlar bilan bir-birini to'ldirish ta'minlanadi.

Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorligining umumiy maqsadi O'zbekiston hukumati siyosatining ustuvor yo'nalishlariga to'liq mos keladigan hamda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha YEIda belgilangan strategik ustuvorliklariga muvofiq ravishda islohotlarni amalga oshirish va ta'sirini jadallashtirishdan iborat.

## 1.2 Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorligining ustuvor yo'nalishlari

2021-2027 yillarga mo'ljallangan KYIDning ustuvor yo'nalishlari va tarmoqlarini aniqlash to'rtta asosiy omil bilan ta'minlanadi:

- (i) 2014-2020 yillarga mo'ljallangan KYID saboqlari va tajribasiga tayanish imkoniyati hamda uning qishloq tarrahiyotiga yo'naltirilganligi;
- (ii) Yevropa Ittifoqi eng ko'p foyda keltirishi mumkin bo'lgan joyda bo'lishini ta'minlash uchun davlat idoralari, fuqarolik jamiyati, yoshlar, xususiy sektor, akademik doiralar, a'zo davlatlar va rivojlanish bo'yicha boshqa hamkorlar bilan keng ko'lamli maslahatlashuvlar;
- (iii) Yevropa Ittifoqi dasturlash ko'rsatmalariga rioya qilish va "birinchi navbatda siyosat" konsentrlangan yondashuvini ta'minlaydigan qo'shimcha tahlil va dasturlash mashqlarida ishonchli empirik asos mavjudligi va
- (iv) COVID-19 pandemiyasidan keyin yashil va inklyuziv o'sishga qayta e'tibor qaratilgan holda "avvalgidan yaxshiroq tiklash"<sup>3</sup> zarurati.

KYID dasturlash mashqlari ustuvorliklarni belgilashga tegishli bo'lgan ko'plab imkoniyatlar va muammolarni aniqladi. Eng muhimi, O'zbekiston hukumatining islohotlar dasturiga va davlat salohiyatini

<sup>3</sup> G7 yetakchilarining 2021 yilgi kommyunikesi: Avvalgidan yaxshiroq tiklanish uchun global harakatlar bo'yicha umumiy kun tartibimiz - Konsilium (europa.eu)

KYID O'zbekistonning demokratik me'yorlar va qadriyatlarga mos kelishini rag'batlantirish uchun milliy hamkorlar bilan birgalikda Yevropa Ittifoqining qo'shimcha qiymati bilan O'zbekistondagi demokratik boshqaruv islohotlari va siyosiy liberallashtirishni qo'llab-quvvatlaydi.

mustahkamlashga sodiqligidir. Mamlakatni 2030 yilga borib yuqori o'rta daromadli mamlakatga aylantirishga qaratilgan o'rta muddatli strategiya va siyosat yashil iqtisodiyotga o'tish, ulkan iqtisodiy o'zgarishlar va xususiyashtirish kun tartibi va boshqaruv islohotlarini o'z ichiga oladi. Bular davlatni modernizatsiya qiladi va qayta yo'naltiradi, shu jumladan fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari va raqamli yechimlardan foydalanishda inklyuziv va barqaror o'sishni rag'batlantirish hamda javobgarlik va xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash.

Shu bois Yevropa Ittifoqi dasturi milliy hamkorlar bilan birgalikda olib borilayotgan islohotlar aholi farovonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ayollar, yoshlar va nogironlar kabi zaif guruhlarga alohida e'tibor qaratadi.

KYID O'zbekistonning demokratik me'yorlar va qadriyatlarga mos kelishini rag'batlantirish uchun milliy hamkorlar bilan birgalikda Yevropa Ittifoqining qo'shimcha qiymati bilan O'zbekistondagi demokratik boshqaruv islohotlari va siyosiy liberallashtirishni qo'llab-quvvatlaydi. Yevropa Ittifoqining Yevropa Yashil bitimi doirasida barqaror<sup>4</sup> rivojlanish sohasidagi siyosati, munosib ish o'rinlari, ta'lim va raqamlashtirish bo'yicha ekspertiza ham uni inklyuziv va barqarorlikka asoslangan zamonaviy, ochiq va bozorga asoslangan iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlashda afzal ko'riladigan texnik tajriba manbai sifatida ko'rsatadi.

COVID-19 dan keyin "avvalgidan yaxshiroq tiklanish", yashil tiklanishni ta'minlash va xalqaro me'yorlar va standartlarga, shu jumladan, mehnat va gender tengligining xalqaro standartlariga

<sup>4</sup> KOMISSIYANING YEVROPA PARLAMENTI, YEVROPA KENGASHI, YEVROPA IQTISODIYOT VA IJTIMOY QO'MITASIGA VA HUDUDLAR QO'MITASIGA MUHOJIRATI- Yevropa Yashil Bitimi – COM/2019/6191.

moslashishga intilishi O'zbekiston hukumatining Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligiga kengroq qarashlariga mos keladi.

**O'zining umumiy maqsadiga erishish uchun KYID, shunga ko'ra, islohot uchun jadallik mavjud bo'lgan uchta ustuvor yo'nalishga e'tibor qaratadi, Yevropa ustuvorliklariga moslashish, shu jumladan GSP+ majburiyatlarini monitoring qilish va amalga oshirish, hamda kelajakdagi EPCA bilan ta'sir va sinergiya uchun aniq salohiyat mavjud.**



Birinchiidan, samarali boshqaruv va raqamli transformatsiya, Hukumatning demokratik boshqaruv islohotlarini qo'llab-quvvatlash, qonun ustuvorligi va davlat xizmatlarini yaxshilash.



Ikkinchiidan, raqamli yashil o'tishni, iqlim o'zgarishini, tabiiy resurslarni barqaror boshqarishni (shu jumladan, suv tanqisligi) qo'llab-quvvatlashga qaratilgan inklyuziv, raqamli va yashil o'sish va yashil ish o'rinlarini yaratishi mumkin bo'lgan investitsiyalar uchun qulay va gender muhitini rag'batlantirish, shu jumladan raqamli savodxonlikni kuchaytirish xamda ilm-fan va texnologiyani bozorga yo'naltirilgan yashil o'tishda qo'llash.



Uchinchiidan, qishloq aholisi farovonligini oshirishga, milliy oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanishni yaxshilashga yordam beradigan aqlli, ekologik va barqaror yondashuvlarni joriy etish uchun agro-oziq-ovqat sektorini modernizatsiya qilish.

Gender tengligi, inson huquqlari, raqamlashtirish, yoshlar va fuqarolik jamiyati hamkorligi boshqaruvning ustuvor yo'nalishida alohida faoliyat sifatida dasturlashtirilgan va KYID bo'ylab keng tarqalgan.

**KYID Markaziy Osiyoda ikkita ustuvor yo'nalish: barqarorlik va farovonlikni ko'rib chiqadigan Osiyo va Tinch okeani mintaqasi uchun Mintaqaviy indikativ dastur bilan to'ldiriladi.**

Barqarorlik suv va energiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlash va mintaqaviy tinchlik va barqarorlik, chegaralarni integratsiyalashgan boshqarish, giyohvand

moddalar bilan bog'liq muammolarni hal qilish, odam savdosiga qarshi kurashish sohalarni qamrab oladi.

Farovonlik raqamli ulanish, tadbirkorlik va mintaqaviy savdo va inson rivojlanishiga, jumladan, pandemiyadan keyingi "avvalgidan yaxshiroq tiklanishga" yo'naltirilgan sa'y-harakatlarga qaratiladi.

Bundan tashqari, KYIDni amalga oshirish demokratiya va inson huquqlarini, fuqarolik jamiyati tashkilotlarini, shu jumladan ijtimoiy hamkorlarni izchil va strategik qo'llab-quvvatlashni, O'zbekistonda tinchlik, barqarorlik va nizolarning oldini olishni ta'minlash bo'yicha Yevropa Ittifoqining tematik dasturlari bilan ham muvofiqlashtiriladi va qo'llab-quvvatlanadi.

Ustuvor yo'nalishlar va taklif etilayotgan chora-tadbirlar Yevropa Ittifoqining "Yevropa Gorizonti" tadqiqot va innovatsiyalar bo'yicha asosli dasturi bilan to'ldiriladi, unga ko'ra, O'zbekiston sub'ektlari Yevropa Gorizontining ko'pgina qismlarida ishtirok etishi va unda ishtirok etishi uchun Ittifoq tomonidan moliyalashtirilishi mumkin.



### 1.3 KYIDning davom etish muddati va sinxronizatsiya imkoniyati

2022-yil boshida O'zbekiston 2022-2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasini qabul qildi. U O'zbekiston besh yil ichida erishmoqchi bo'lgan yetti ustuvor yo'nalish va yuzta maqsaddan iborat.

Ushbu strategik hujjat O'zbekiston uchun barcha sohalardagi keyingi islohotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Strategiya "o'rtacha daromadi yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga qo'shilish uchun asos yaratishi lozim bo'lgan turli chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

2018 yildan beri hukumat o'z islohotlari va sektor rejaslarini 2030 yilgacha yuqori o'rta daromad maqomiga erishish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlarini(BRM) amalga oshirish bo'yicha intilishlari bilan aniq bog'lab kelmoqda. Ushbu 2030 yilga mo'ljallangan siyosat prognozi YEIning dasturlash asoslari haqida ma'lumot beradi.

KYIDni amalga oshirish davri, 2021-2027, shuning uchun milliy siyosatning ustuvor yo'nalishlari 2030 yilga mo'ljallangan maqsadlarga muvofiq rivojlanib borishi sababli dinamik moslashishga imkon beradi. 2024 yildagi o'rta muddatli tahlil hukumat bilan uning yangi 5 yillik rivojlanish rejasini amalga oshirishning o'rtalarida bo'lgan paytda muloqot qilish imkoniyatini beradi.





## 2 | Samarali boshqaruv va raqamli transformatsiya



Boshqaruv muammosi islohotni jadallashtirish, natijada u hech kimni chetda qoldirmaslik bo'yicha Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) majburiyatiga muvofiq davlat xizmatlari va farovonlikni yaxshilashga olib keladi. 2021 yilda va undan keyingi davrda islohotlar bo'yicha milliy "yo'l xaritasi" demokratik javobgarlik, qonun ustuvorligi, fuqarolarni qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish va xizmatlar ko'rsatishni yaxshilashga urg'u beradi. BRMning 5, 8, 9, 10, 16 va 17-bandlari doirasida Yevropa Ittifoqining ushbu ustuvor yo'nalishdagi o'ziga xos maqsadi davlat xizmatlarini samarali ko'rsatish imkoniyatlarini oshirgan holda shaffof va hisobdor demokratik boshqaruvni rag'batlantirish uchun milliy hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik qilishdan iborat.

Raqamlashtirish, gender tengligi, shu jumladan, gender ish haqi farqi va huquqlarga asoslangan yondashuvlar kabi ko'plab mavzular ko'rsatilayotgan barcha yordamlarning asosi bo'ladi. Fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik, jumladan, raqamli salohiyat va savodxonlikni mustahkamlash "boshqaruvning talab tomoni"ni kuchaytiradi.

## 2.1 Demokratik boshqaruv va qonun ustuvorligi

### 2.1.1 Ustuvor sektorga tegishli aniq maqsad

Demokratik islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar va demokratik normalarni o'zlashtirish davlat o'zgarishlar dasturining markazida turadi. Yevropa Ittifoqining o'ziga xos maqsadi O'zbekistonning qonun ustuvorligiga, inson huquqlarining umuminsoniy qadriyatlariga, shu jumladan mehnat huquqlariga, fuqarolik jamiyatining gullab-yashnashiga qaratilgan va kamsitishning barcha shakllariga, ayniqsa, gender tengsizlikka barham berishga asoslangan plyuralistik demokratik tizimga o'tishini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

### 2.1.2 Kutilayotgan natijalar

Yevropa Ittifoqi inson huquqlarini himoya qilish, demokratik islohotlarni ilgari surish va nazorat vazifalarini bajarishda o'zlarining kuchaytirilgan roliga moslashayotgan milliy hokimiyatlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Raqamli konsultatsiya va aloqa vositalarini qo'llash milliy demokratik institutlar doirasini kengaytiradi va qonun ijodkorlariga fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri, foydali va samaraliroq muloqot qilish

imkonini beradi. Yevropa Ittifoqining qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha hamkorligi, shuningdek, hukumatning qonunchilik islohotlarini jadallashtirish, normativ hujjatlar sifatini oshirish va tartibga solish yukini kamaytirish borasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Fuqarolik jamiyati, shu jumladan ijtimoiy hamkorlar uchun xizmatlar ko'rsatish, qarorlar qabul qilish va xabardorlikni oshirish bo'yicha o'z vazifalarini bajarishi uchun qulay muhit yaratilishiga qo'shimcha yordam ko'rsatiladi.

O'zbekistonda demokratik boshqaruv islohotlari inson huquqlari va xalqaro me'yorlar, jumladan, migratsiya, xalqaro mehnat standartlari, odam savdosi va zo'ravonlik ekstremizmiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha xabardorlikni oshirish va ularga rioya qilishni talab qiladi. Siyosatni qo'llab-quvvatlash, amalga oshirish salohiyati va innovatsion raqamli vositalardan foydalanish asosiy institutlar va fuqarolik jamiyatiga, ayniqsa yoshlar va ayollar tashkilotlariga taqdim etiladi, chunki ular demokratik boshqaruv, qonun ustuvorligi, gender tengligi va inson huquqlari bilan bog'liq muloqot, targ'ibot va ta'lim tashabbuslarini amalga oshirish uchun o'zlarining imkoniyatlarini rivojlantiradilar.

O'zbekistonning fuqarolar va ularning vakillari o'rtasida samarali va mas'uliyatli aloqa o'rnatish bo'yicha majburiyatlari normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda aloqa va qayta aloqa uchun raqamli platformalarni qabul qilish bo'yicha chora-tadbirlar orqali qo'llab-quvvatlanadi. Qishloq joylariga e'tibor qaratgan holda, Yevropa Ittifoqi qonuniy huquqlardan xabardorlikni oshirish bo'yicha milliy tashabbuslarni ilgari suradi va qo'llab-quvvatlaydi, huquqiy ta'lim va savodxonlikni kengaytiradi, inson huquqlari bo'yicha tegishli milliy institutlar bilan hamkorlikda yuridik yordam va maslahat xizmatlarini kuchaytiradi. Inson huquqlari va asosiy erkinliklari ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining to'siqlarsiz faoliyat ko'rsatish qobiliyatini kuchaytirish orqali takomillashtiriladi.

Davlat xizmatlarini samarali ko'rsatish imkoniyatlarini oshirgan holda shaffof va hisobdor demokratik boshqaruvni rag'batlantirish uchun milliy hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik qilishdan iborat

2021 yil aprel oyida GSP+ taqdim etilish bilan zimmasiga olingan majburiyatlar, jumladan, 27 ta xalqaro konvensiyaning bajarilishi ham nazorat qilinadi.

## 2.2 Davlat xizmatlarini yaxshilash imkoniyatlari

### 2.2.1 Ustuvor sektorga tegishli aniq maqsad

Hukumatning inson resurslarini boshqarish, aloqa va raqamli yechimlardan foydalanish, samaradorlikni boshqarish va kuchaytirilgan monitoring orqali islohotlarni jadallashtirish majburiyati Yevropa Ittifoqiga davlat sektori salohiyati va islohotlarni qo'llab-quvvatlash uchun boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Yevropa Ittifoqining o'ziga xos maqsadi davlat sektorini modernizatsiya qilishni samarali va hisobdor boshqaruv, salohiyatni kuchaytirish va korrupsiya darajasini pasaytirish bilan qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lib, islohot va raqamlashtirish tashabbuslari orqali sifatli davlat xizmatlarini taqdim etadi.

### 2.2.2 Kutilayotgan natijalar

Islohotlar va huquqiy hujjatlarning soni ortib borayotgani ishning shaffof, hisobdor va samarali optimallashtirilishini taqozo etmoqda. Elektron boshqaruvni qo'llab-quvvatlashda, jumladan, fuqarolarning fikr-mulohazalari va javobgarligini rag'batlantirishda Yevropa Ittifoqi salohiyatini qo'llab-quvvatlash hukumatning "Raqamli O'zbekiston 2030" tashabbusini aniq hisobga oladi. Shu sababli, Yevropa Ittifoqi salohiyatini rivojlantirishga asosiy e'tibor davlat xizmatini modernizatsiya qilish va yuqori darajadagi siyosatlarni ishlab chiqiladigan rejalar va budjetlarga aylantirishga qaratiladi, bu funksional tahlillar va boshqa tashkiliy rivojlanish vositalari orqali islohotlarni amalga oshirishni tezlashtiradi.

Institutsional mustahkamlash, shu jumladan budjetni qo'llab-quvvatlashga qo'shimcha sifatida Davlat moliyasini boshqarish (DMB) islohoti hamda o'zgarishlarni boshqarish va raqamlashtirishga zamonaviy yondashuvlar siyosat, tartibga solish ta'sirini baholash, "yagona darcha" xizmatlari, fuqarolarning fikr-mulohazalari mexanizmlari va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq elektron boshqaruv yechimlariga qo'llaniladi. Texnik va statistik salohiyatning oshishi

dalillarga asoslangan siyosat ishlab chiqish, gender masalasi va yoshlarga mos xizmatlar ko'rsatish va fuqarolar oldidagi mas'uliyatni yanada kuchaytirish uchun ma'lumotlar sifati, mavjudligi va tahlilini oshiradi.

O'zbekistonning Korrupsiyaga qarshi milliy strategiyasida (2021-2025) korrupsiya davlat xizmatlari ko'rsatishga putur yetkazishi va fuqarolarning hukumatga bo'lgan ishonchini yo'qotishi e'tirof etilgan. Yevropa Ittifoqining texnik yordami va salohiyatni rivojlantirish dasturi Hukumatga Milliy strategiyani amalga oshirish imkonini beradi. Yevropa Ittifoqining hamkorligi profilaktika sohasida siyosatni shakllantirish, davlat xizmatchilari va huquqshunoslar uchun ta'lim dasturlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashda zamonaviy ilg'or tajriba va vositalardan foydalanishga yordam beradi, masalan, tahlil qilish, tushuntirish ishlarini olib borish va axloqiy me'yorlarni ishlab chiqarish hamda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha hukumatning yo'l xaritalari.

Hukumat, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan korrupsiyaga qarshi milliy sa'y-harakatlarda hamkorlik qilib, Yevropa Ittifoqi onlayn xabardorlik, ta'lim, monitoring, hisobot va fikr-mulohazalar bilan bog'liq raqamli yechimlarni ilgari suradi. Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning o'tish tajribasi, ayniqsa xususiylashtirish va xizmatlar ko'rsatishdan tashqari shartnomalar bo'yicha, Yevropa Ittifoqining foydalanuvchilararo qo'llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish bilan birga, Yevropa Ittifoqi uchun qiyosiy ustunlik manbai bo'ladi, chunki u korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Yevropa standartlari, tajriba va ekspertizasiga yo'l ochib beradi.

### 3 | Inklyuziv, raqamli va yashil o'sish



### 3.1 Raqamli «yashil» o'tishni qo'llab-quvvatlash

#### 3.1.1 Ustuvor sektorga tegishli aniq maqsad

Aholining o'sishi, tez urbanizatsiya va iqtisodiy transformatsiyalar atrof-muhitga sezilarli bosim o'tkazishga olib keladi. Ushbu vaziyat iqlim o'zgarishi, energiya va suvga bo'lgan talabning ortishi va tabiiy resurslarning kamayishi bilan og'irlashmoqda. Shuning uchun Yevropa Ittifoqining o'ziga xos maqsadi O'zbekistonning iqlim bo'yicha Parij majburiyatlarini bajarish, milliy siyosat ustuvorliklarini amalga oshirish hamda resurslar samaradorligiga e'tibor qaratgan holda muvofiqlashtirilgan va izchil harakatlar orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash siyosatini, amalga oshirish va boshqarish salohiyatini kuchaytirishdan iborat.

#### 3.1.2 Kutilayotgan natijalar

Yevropa Ittifoqi iqlim o'zgarishi muammolarini hal qilish uchun milliy salohiyatni oshirish, yashil va aylanma iqtisodiyotga o'tishda iqtisodiy ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlash va huquqlarga asoslangan yondashuvga muvofiq tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni ta'minlash uchun tegishli institutlar bilan hamkorlik qiladi. Yevropa Ittifoqi "2030 yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tish" va 2030 yilgacha milliy strategiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha yo'l xaritasiga binoan hukumat siyosatini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi.

Yevropa Ittifoqining Yashil bitimi intilishlariga muvofiq, Yevropa Ittifoqi qo'llab-quvvatlashi quyidagilarga hissa qo'shadi:

- (i) issiqxona gazlarini kamaytirish;
- (ii) barqaror energiya (shu jumladan energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya);
- (iii) toza va iqlimga mos texnologiyalarni joriy etish;
- (iv) chiqindilarni boshqarish, shu jumladan ularni yig'ish va qayta ishlash;
- (v) suv va yerni barqaror va integratsiyalashgan ko'rinishda boshqarish;
- (vi) barqaror shahar infratuzilmasi;
- (vii) Orol dengizini rehabilitatsiya qilish.

Parij bitimining iqlim bo'yicha majburiyatlari va milliy rejalarga muvofiq, barqaror energetika sohasidagi hamkorlik institutsional islohotlar va salohiyatni mustahkamlashga bevosita yordam beradi. Hamkorlik, ayniqsa, energetika va suv sohasida rivojlanish bo'yicha boshqa hamkorlar faoliyati bilan yaqindan muvofiqlashtiriladi. Investitsiyalar va texnik yordamning kombinatsiyasi Yevropa va xalqaro standartlarga moslashishga yordam beradi. Orolbo'yida eroziya, yerlarning degradatsiyasini bartaraf etish, o'rmonlarni barqaror boshqarishni ta'minlash, o'rmonlarning kesilishiga qarshi kurashishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Ochiq va raqobatbardosh xususiy sektor uchun poydevor qo'yuvchi 2019 yilgi "Investitsiyalar to'g'risida"gi qonun "yashil" davlat va xususiy investitsiyalarni rag'batlantiradi hamda keyingi huquqiy, siyosiy va institutsional islohotlar uchun asos yaratadi. Hukumat va rivojlanishning boshqa hamkorlari, ayniqsa Yevropa moliyainstitutlari, bilan yaqindan hamkorlik qilib, Yevropa Ittifoqi milliy salohiyatni oshiradi, qulay investitsion muhitni qo'llab-quvvatlaydi va xususiy sektor va fuqarolik jamiyati bilan xususiy sektor boshchiligidagi iqtisodiy transformatsiyani jadallashtirish va munosib ish o'rinlari yaratish uchun hamkorlikni rivojlantiradi.

### 3.2 Muvofiq ish o'rinlari va raqamli savodxonlik uchun ko'nikmalarni rivojlantirish

#### 3.2.1 Ustuvor sektorga tegishli aniq maqsad

Ayniqsa, yoshlar, ayollar, repatriantlar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish maqsadida Hukumat 2018 yildan boshlab kasb-hunar ta'limi (KHT) sohasida islohotlarni boshladi. Ushbu islohotlar o'quvchilarga beriladigan ta'lim va mehnat bozori talab qiladigan ko'nikmalar o'rtasidagi

Investitsiyalar va texnik yordamning kombinatsiyasi Yevropa va xalqaro standartlarga moslashishga ko'maklashadi

tafovutni yo'q qiladi. COVID-19 pandemiyasi ta'lim uzluksizligini rag'batlantirish bo'yicha ulkan sa'y-harakatlarni keltirib chiqardi va masofaviy ta'lim usullariga tez o'tish va talabalar va o'qituvchilarni onlayn qo'llab-quvvatlashda innovatsion yondashuvlarni qo'llashni tezlashtirdi. COVID-19 inqirozidan olingan saboqlar to'liq hisobga olinishini ta'minlash, Yevropa Ittifoqining o'ziga xos maqsadi yoshlar, ayollar, migrantlar/repatriantlar, nogironlar va boshqa zaif guruhlarning kasbiy ta'lim va raqamli savodxonligini oshirish orqali ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

### 3.2.2 Kutilayotgan natijalar

Yevropa Ittifoqi ta'lim va raqamli savodxonlik, fan, texnologiya va tadqiqot sohalariga investitsiyalar yashil va raqamli iqtisodiyot ehtiyojlari bilan bog'lanishi hamda munosib ish o'rinlari yaratilishini ta'minlash uchun tegishli davlat tuzilmalari bilan hamkorlik qiladi. Yevropa Ittifoqi kasb-hunar ta'limi sektorini modernizatsiya qilishni, shu jumladan, kasb-hunar ta'limi islohotiga rahbarlik qilish uchun umumiy siyosat va salohiyatni kuchaytirish hamda uni kengroq yashil o'sish, gender tengligi va yoshlar tashabbuslari bilan muvofiqlashtirishni qo'llab-quvvatlaydi. Bunday qo'llab-quvvatlash ta'lim imkoniyatlaridan teng foydalanish masalalariga e'tiborni kuchaytirish bilan birga amalga oshiriladi.

AKT, ilm-fan va tadqiqot sohalarida salohiyatni oshirish bo'yicha kengroq sa'y-harakatlarning bir qismi sifatida, xususan, raqamli savodxonlik va ma'lumotlarni boshqarish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun raqamlashtirishga e'tibor qaratiladi.

Xususiy sektor bilan hamkorlik bozor talab qiladigan raqamli ko'nikmalar va ilmiy asoslangan tajribani aniqlaydi va shuning uchun ish beruvchilarning ehtiyojlari va hozirda taqdim etilayotgan texnik ta'lim o'rtasidagi farqni qisqartirishga xizmat qiladi.

Yevropa oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik "Raqamli O'zbekiston 2030" islohoti doirasida raqamli foydalanish va savodxonlikni oshiradi hamda ta'lim dasturlari sifatini ta'minlagan holda "fanni tijoratlashtirish" imkonini beradi. Innovatsiyalar va ko'nikmalarni rivojlantirishni kuchaytirish hamda qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi raqamli va ta'lim sohasidagi tafovutni kamaytirish



uchun qishloq joylardagi ayollar va yoshlarning raqamli ko'nikmalariga alohida e'tibor beriladi. ERASMUS+ sxemasi bilan kuchli aloqalar hukumat bilan ta'limga yo'naltirilgan maxsus muloqot orqali ham mustahkamlanadi. Mintaqaviy dastur doirasida taklif etilayotgan Texnik va kasb-hunar ta'limi (TKHT) dasturi (DARYA) bilan aloqalar siyosat, sifat va mehnat bozori o'zaro bog'liqliklarini kuchaytiradi, shu bilan birga, O'zbekistondagi kasb-hunar ta'limi sohasidagi islohotlarni Yevropa Ittifoqi ko'magi bilan muvofiqlashtirishni va Markaziy Osiyo mintaqasida TKT tizimlarini integratsiyalashni ta'minlaydi.

Xususiy sektor bilan hamkorlik bozor talab qiladigan raqamli ko'nikmalar va ilmiy asoslangan tajribani aniqlaydi va shuning uchun ish beruvchilarning ehtiyojlari va hozirda taqdim etilayotgan texnik ta'lim o'rtasidagi farqni qisqartirishga xizmat qiladi

# 4 | Aqlli ekologik toza agro-ozuq-ovuqat sektorini rivojlantirish



Agro-ozuq-ovuqat sektori katta o'sish va eksport salohiyatini namoyish etadi va qishloq aholisining farovonligini oshirish, munosib ish o'rinlari yaratish, ozuq-ovuqat xavfsizligi va ovqatlanishni yaxshilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ko'pchilik ishlab chiqaruvchilarni tashkil etuvchi kichik fermer xo'jaliklarining bozorga kirishi va raqobatbardoshligi cheklangan. Qishloq xo'jaligi, ozuq-ovuqat va to'qimachilik sanoatida, ayniqsa, qishloq ayollari va yoshlarini ish bilan ta'minlash salohiyati salmoqli. Yevropa Ittifoqining "Yashil bitim" va "Fermadan vilkagacha" strategiyasi<sup>1</sup> atrof-muhit, ozuq-ovuqat xavfsizligi va ovqatlanish hamda qishloq taraqqiyoti masalalariga juda mos keladi.

Shu sababli, ushbu ustuvor yo'nalish bevosita Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ning 1, 3, 5, 10, 12 va 14-bandlariga salmoqli hissa qo'shish bilan birga (BRM)ning 2 va 8 bandlariga qaratilgan. Maqsad aqlli va ekologik toza qishloq xo'jaligini xamda iqlim va tabiiy ofatlarga chidamliligi, qishloqning eng kam ta'minlangan qatlamlari uchun turmush sharoiti yaxshilangan, ozuq-ovuqat xavfsizligi va ozuq-ovuqat bilan ta'minlanganligini ko'rsatadigan ozuq-ovuqat sektorini modernizatsiya qilish, diversifikatsiya qilish va karbonsizlantirishga hissa qo'shishdir. Yevropa Ittifoqining qo'llab-quvvatlashi biznes va inson huquqlari bo'yicha eng yuqori xalqaro standartlar va hujjatlarga (masalan, tegishli ekspertiza, Biznes va inson huquqlari bo'yicha BMTning yetakchi tamoyillari, xususiy sektor tomonidan zarar yetkazmaslik, adolat va biznes uchun javobgarlik, ijtimoiy muloqot) muvofiq bo'ladi.

## 4.1 Agro-ozuq-ovuqat siyosati asoslari va maslahat xizmatlari

### 4.1.1 Ustuvor sektorga tegishli aniq maqsad

Agro-ozuq-ovuqat sektorini bozor tamoyillari asosida modernizatsiya qilishni davom ettirar ekan, Hukumat siyosat asoslarini mustahkamlash, institutlararo boshqaruv tuzilmalarini kuchaytirish, ayniqsa ozuq-ovuqat xavfsizligi va ovqatlanish, raqamli vositalar va axborot tizimlarini joriy etish ustida ishlamoqda. Yevropa Ittifoqining

<sup>1</sup> Yuqoridagi 4-eslatmaga qarang; Shuningdek: [https://ec.europa.eu/food/horizontal-topics/farm-fork-strategy\\_en](https://ec.europa.eu/food/horizontal-topics/farm-fork-strategy_en)

ushbu sektordagi maqsadi agro-oziq-ovqat va oziq-ovqat xavfsizligi siyosati asoslari va maslahat xizmatlarini yaxshilash uchun hukumat bilan hamkorlik qilishdir.

#### 4.1.2 Kutilayotgan natijalar

Yevropa Ittifoqi ko'magi O'zbekistonning Agro-oziq-ovqat sohasini rivojlantirish strategiyasi (2020-2030 yillar) va Milliy oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat strategiyasini amalga oshirish bo'yicha milliy salohiyatini kuchaytiradi. Yevropa Ittifoqi agro-oziq-ovqat sektori va qishloq turmush tarzini inklyuziv, yashil, barqaror, genderga mos va iqlimga beziyon rivojlantirishga yordam berishda davom etadi. Hukumatning qishloq xo'jaligidagi islohotlarini qo'llab-quvvatlashda Yevropa Ittifoqi ishtirokining ustuvor yo'nalishlari, shu jumladan uning Davlat moliyasini boshqarish (DMB)ni qo'llab-quvvatlash qismi sifatida, siyosat yuritishda dalillardan foydalanishni ilgari suradi va dasturlash, budjetlashtirish, moliyaviy nazorat, samaradorlikni boshqarish, axborot va ma'lumotlar boshqaruvi xamda maslahat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq institutsional salohiyatni kuchaytiradi.

Raqamli vositalar va Yevropa Ittifoqi sun'iy yo'ldosh ma'lumotlarini almashish, jumladan, iqlimga asoslangan amaliyotlarni, oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanishni yaxshilash hamda iqlim bilan bog'liq xavf-xatarlarga chidamlilikni oshirish uchun qo'llab-quvvatlanadi. Yevropa Yashil bitimiga muvofiq va Yevropa moliya institutlari (YEMI) bilan kengaytirilgan hamkorlik orqali qo'shimcha salohiyatni oshirish investitsion va biznes muhitini yaxshilashga, xususan, iqlimga mos yashil investitsiyalar va yashil moliyadan foydalanishni osonlashtirishga, ayniqsa ayollar va yoshlar muammolarini hal qilishga yo'naltiriladi.

2021 yilda Qishloq xo'jaligi bilimlari va innovatsiyalari tizimining huquqiy bazasining qabul qilinishi Yevropa Ittifoqi tajribasi va ushbu sohadagi ilg'or xalqaro tajribadan foydalangan holda Yevropa Ittifoqining "Fermadan vilkagacha" strategiyasiga muvofiq zamonaviy ta'lim, kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqot, qishloq xo'jaligini kengaytirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish uchun asos bo'ladi. Kommunal xizmatlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash va eng noqulay ishlab chiqaruvchilarning mahsuldorligini oshirish uchun Yevropa Ittifoqi o'tish davrida istisno

qilish xavfini bartaraf etish uchun hukumat va nodavlat tashkilotlar bilan ishlaydi. Bu bozorni qamrab olish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan maqsadli siyosatni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi, jumladan, past uglerodli va iqlimga chidamli qiymat zanjirlarida. Savdo bilan bog'liq qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlari, jumladan, JSTga a'zo bo'lish va kelajakdagi EPCA va GSP+ kontekstida eksport standartlariga moslashish, jumladan, ishlab chiqarish va marketingda raqamli vositalarni qo'llashni rag'batlantirish va eksport standartlariga rioya qilish, Yevropa Ittifoqining hukumat, kichik va o'rta korxonalar va qishloq sektoridagi boshqa ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorligini amalga oshirish.

## 4.2 Barqaror, aqlli va ishonchli qishloq turmush tarzi vositalari

### 4.2.1 Ustuvor sektorga tegishli aniq maqsad

Ushbu sektorda Yevropa Ittifoqining maqsadi eng zaif qatlamlarga (kichik mulkdorlar, kichik va o'rta korxonalar, yoshlar, migratsiya tufayli yolg'iz qoldirilgan ayollar, nogironlar, repatriantlar, vaqtinchalik ichki mehnat muhojirlari) e'tibor qaratgan holda qishloqda yashash imkoniyatlarini, munosib ish o'rinlari va bozorlarga kirish imkoniyatlarini oshirishdan iborat.

### 4.2.2 Kutilayotgan natijalar

Yevropa Ittifoqi hamkorligi, ayniqsa, COVID-19 bilan bog'liq holda aholi turmush darajasini yaxshilash va munosib ish o'rinlari (shu jumladan, qishloq xo'jaligi sektoridan tashqari) yaratish uchun qo'shilgan qiymat, raqobatbardoshlik va qishloq iqtisodiyotining barqarorligini oshirishga qaratiladi.

Qishloq aholisining bandlik salohiyatini oshirish, yoshlar va xotin-qizlarga alohida e'tibor qaratgan holda, xususiy sektor bilan hamkorlikda va huquq egalari bilan maslahatlashgan holda malaka oshirish va xalqaro miqyosda tan olingan malaka sertifikatini qo'llab-quvvatlash ko'zda tutilgan. Bu agroturizm va geografik ko'rsatkichlarni rivojlantirishni ham o'z ichiga olishi mumkin. Majburiy mehnatga barham berishda katta yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, munosib mehnat dasturini qo'llab-quvvatlash va rasmiy bandlikka o'tish

zarur, chunki qishloq xo'jaligidagi ish o'rinlarining qariyb 80 foizi norasmiy hisoblanadi.<sup>2</sup> Shuning uchun kelgusida xalqaro mehnat standartlarini joriy qilish, ijro etish va ratifikatsiya qilish (shuningdek, qishloq xo'jaligi sektoridan tashqari) qo'llab-quvvatlanadi. Yevropa Ittifoqi hamkorligi, shuningdek, yer boshqaruvi va moliyaviy inklyuzivlik bo'yicha islohotlarni tezlashtirishga qaratilgan va ular ayniqsa kichik xo'jaliklar uchun muhim bo'lib, kengroq modernizatsiya va diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini, kooperativlarning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish hamda ularning mahalliy va eksport bozorlariga chiqish imkoniyatini oshirish uchun ko'mak ko'rsatiladi. Kichik fermer xo'jaliklari, kichik va o'rta korxonalar va tadbirkorlik tashabbuslariga, jumladan, ayollar va yoshlarga e'tibor kuchaytiriladi. Yevropa Ittifoqining "Fermadan vilkagacha" strategiyasiga muvofiq, takomillashtirilgan oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimlari va ekotizimlarni saqlashga, iqlim o'zgarishiga moslashish va chidamlilik salohiyatini kuchaytirishga hamda yer va tuproq sifatini bosqichma-bosqich yaxshilashga yordam beradigan iqlimga mos va barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlari uchun salohiyatni oshirish ta'minlanadi.

### **4.3 Yevropa guruhi tashabbusi (YEGT) – Zamonaviy va barqaror agro-oziq-ovqat sektori va ishonchli qishloq turmush tarzi vositalarini qo'llab-quvvatlash**

Mavjud muvofiqlashtiruvchi kelishuvlarga asoslanib, O'zbekistonda hamkorlik 2020 yil boshida a'zo davlatlar va YEMllar ishtirokida boshlangan. COVID-19ga qarshi mahalliy kurash va tiklanish sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirilgan va samarali qo'llab-quvvatlashni ta'minlash uchun agro-oziq-ovqat sektorini barqaror modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga va barqaror turmush vositalariga yo'naltirilgan o'rta muddatli istiqbollar ishlab chiqildi. Tashabbusga 65 million yevro ajratishni rejalashtirayotgan Yevropa Ittifoqidan

<sup>2</sup> XMT munosib mehnat kun tartibi quyidagi to'rtta ustunga asoslanadi: to'liq va samarali bandlik, mehnat huquqlari, ijtimoiy himoya va ijtimoiy muloqotni rag'batlantirish.



tashqari, ushbu YEGTda ishtirok etuvchi Yevropa moliya institutlari Fransiya (AFD), Germaniya (GIZ va KfW), YEIB va YETTB hisoblanadi.

Ushbu YEGT KYIDning barcha uchta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha sinergiyani yaratadi. Yevropa Ittifoqining "Fermadan vilkagacha" strategiyasiga asoslanib, va ayniqsa, Yevropa Ittifoqining Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan davom etayotgan hamkorligini hisobga olib, u institutsional qurilish, inklyuzivlik, xususiy sektor o'sishi, yangi ish o'rinlari yaratish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va moslashishga qaratilgan.

Ushbu YEGT asosan agro-oziq-ovqat sektoriga qaratilgan, lekin u katalitik va mustahkamlovchi ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa ustuvor sohalardagi hamkorlikni birlashtiradi. Ushbu tarmoqlararo yondashuv "birgalikda yaxshiroq ishlash" majburiyatini amalga oshirishga imkon beradi va bir qator hukumat vazirliklari, shuningdek, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikni mustahkamlaydi.

Bu O'zbekistonning o'sish trayektoriyasiga transformativ va uzoq muddatli ta'sirni ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi ishchilarining 80 foizi norasmiy ekanligini hisobga olsak, agro-oziq-ovqat tizimida, ishlab chiqarish, qayta ishlash va tegishli xizmatlarda bandlik kambag'allikni kamaytirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi.



Qishloq ayollari, yoshlari va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun ish o'rinlarini yaratish juda keng qamrovli bo'lishi mumkin. Oziq-ovqat tizimi hozirgi vaqtda issiqxona gazlarining 25-30 foizini ishlab chiqaradi va atrof-muhitga yanada kengroq salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu YEGT iqlim bilan bog'liq muammolarni hal qilishga va inson rivojlanishi va atrof-muhitni boshqarish sohasidagi boshqaruv tizimini kuchaytirishga intiladi.

"Yevropa Guruhi" yondashuvi siyosat va institutsional salohiyatni mustahkamlash, xususiy va davlat investitsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda Yevropa tajribasi va ekspertizasidan foydalanishni ta'minlash uchun bir qator usullarni birlashtiradi. YEGT asosiy e'tiborni Yevropa Ittifoqi, a'zo davlatlar va YEMllar individual qadriyatni namoyish etgan va hamkorlikdagi sa'y-harakatlari orqali ko'proq ta'sir qilish potensialiga ega bo'lgan to'rtta asosiy boshlang'ich nuqtasiga qaratadi.

To'rtta faoliyat sohasi quyidagilardan iborat:

- i) Barqaror, past uglerodli va iqlimga chidamli agro-oziq-ovqat va qishloq taraqqiyoti sektorini rivojlantirish. Yevropa Ittifoqining "Yashil bitim" va "Fermadan vilkagacha" strategiyasiga muvofiq sektor boshqaruvi, amalga oshirish salohiyati va siyosiy muloqatni, ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat bo'yicha muloqotni kuchaytirish uchun Yevropa Ittifoqi tomonidan budgetini qo'llab-quvvatlash va texnik yordam ko'rsatish.
- ii) Qiymat zanjirlarining raqobatbardoshligi va barqarorligi hamda barqaror, ishonchli qishloq turmush tarzi vositalari. Fransiya (AFD), Germaniya (GIZ) va Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlangan holda, ilg'or tajriba almashish va sektorni xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish uchun fermerlar va qayta ishlash korxonalarini bilan ish olib borish. Siyosatni qo'llab-quvvatlash va investitsiya loyihalari, jumladan, Yevropa Ittifoqining blending (suv ta'minoti bo'yicha AFD bilan) inklyuziv va iqlimga mos texnologiyalarni o'z ichiga oladi.
- iii) Orol dengizi mintaqasining inklyuziv va yashil tiklanishi. YEIB (yerni rehabilitatsiya qilish va sug'orish bo'yicha) va Germaniya (GIZ, va ehtimol KfW) bilan hamkorlikda barqaror iqtisodiy rivojlanish va barqaror qishloq turmush sharoiti bo'yicha YEIning

blending operatsiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kengroq milliy va xalqaro tiklash tashabbusiga hissa qo'shadi.

- iv) Xususiy sektorni rivojlantirish kichik va o'rta biznes sub'ektlariga biznesni qo'llab-quvvatlash va kredit olish imkoniyatini (YETTB) taqdim etuvchi banklar uchun muhim moliyaviy yordamni o'z ichiga oladi. Yevropalik hamkorlar, jumladan, Germaniya (KfW) va YEMllar (YETTB va YEIB) biznesga, ayniqsa ayollar va yosh tadbirkorlarga hamda zaif guruhlarga sezilarli yordam beradigan bir qator vositalarni (blending, kredit kafolatlari, loyihalarni moliyalashtirish) taklif etadi.

### **Yevropa Guruhi Tashabbusi (YEGT) shuningdek, jamoaviy o'ziga xoslik, javobgarlik va natijalarni qo'llab-quvvatlaydi.**

O'zbekistonda YEGT hamkorlikda dasturlash, amalga oshirish va monitoring qilish bo'yicha mavjud Yevropa muvofiqlashtirish kelishuvlarini kuchaytirish va oshirish orqali transformatsion ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda. Yevropa Guruhi tomonidan bugungi kunga qadar ijobiy yondashuvi 2021 yildan boshlanadigan qo'shma strategiya ishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, umumiy o'ziga xoslik va uning muvofiqlashtirish tizimi Yevropaning ko'rinishi, mavqei va ta'sirini oshirish uchun istiqbolli asos bo'lib xizmat qiladi.

Yevropa Ittifoqining ushbu YEGTga qo'shgan indikativ hissasi (65 million yevro) Yevropa jamoasi hamkorlarining indikativ mazmunli hissasini imkon qadar tezroq tasdiqlashi shart. Agar u mavjud bo'lmasa, YEIning indikativ hissasi KYIDning ustuvor yo'nalishlariga va ularning taqsimlanishiga muvofiq qayta yo'naltirilishi mumkin. Yevropa Ittifoqining faoliyati to'g'risidagi shartnomaning (YEIFSH) 210-moddasiga ko'ra, Ittifoq va a'zo davlatlarning Komissiya tashabbusi bilan rivojlanish siyosatini muvofiqlashtirish majburiyati har doim amal qiladi.

Yevropa Guruhi  
Tashabbusi (YEGT)  
shuningdek,  
jamoaviy o'ziga  
xoslik, javobgarlik va  
natijalarni qo'llab-  
quvvatlaydi

# 5 | Qo'llab-quvvatlash choralari

## 5.1 Fuqarolik jamiyati manfaatiga javob beradigan chora-tadbirlar

Dinamik fuqarolik jamiyati shakllanmoqda va Fuqarolik Jamiyati Tashkilotlari (FJT) soni ortib bormoqda, hisobdorlik tenglamasining "talab tomoni"ni ta'minlamoqda. Biroq, barcha faoliyat sohaslarida nodavlat notijorat tashkilotlari jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishadi. Islohotlarga qaramay, ro'yxatga olish va hisobot berish talablari og'irligicha qolmoqda va ayrim huquq himoyachilari ta'qib va cheklovlarga duch kelmoqda. 2020 yilda tashkil etilgan Jamoatchilik palatasi taraqqiyotga erishish majburiyatini bildirsa ham, hukumat bilan hamkorlik va axborotga kirish cheklangan. Jamoat tashkilotlari ko'pincha hamkorlik va advokatlik tashabbuslarini rivojlantirish va o'zaro muvofiqlashtirish uchun imkoniyat va resurslarga ega emaslar. Bu ularning iqtisodiyot va xizmatlar ko'rsatishning raqamli transformatsiyasiga moslashishini cheklab qo'ygan va ularning hokimiyat bilan konstruktiv hamkorlik qilish qobiliyatiga ta'sir qilgan.

Yevropa Ittifoqining fuqarolik jamiyati bilan hamkorligi, ayniqsa, jadal islohotlar va xizmatlar ko'rsatishorqali yaxshilangan qulay muhitni qo'llab-quvvatlash uchun NNT kodeksining amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanib qolmaydi. Demokratik boshqaruvning ustuvor yo'nalishi doirasida ko'rsatiladigan yordamga qo'shimcha ravishda, Yevropa Ittifoqi barcha uchta ustuvor yo'nalish bo'yicha boshlang'ich nuqtalarini maksimal darajada oshiradi va boshqaruv masalalari va istisno qilish bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlari, yoshlar guruhlari, akademik doiralar va xususiy sektor bilan bevosita hamkorlik muloqotini davom ettiradi, shuningdek, inklyuziv yashil o'sish va qishloq turmush tarzi sohaslarida.

Tadbirkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar, malaka oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Prezident tomonidan 2020 yil dekabr oyida e'lon qilingan majburiyatlarni hisobga olgan holda, Yevropa Ittifoqi hamkor bo'lgan davlat idoralari ham fuqarolik jamiyati vakillari va ommaviy axborot vositalari bilan yanada yaqinroq va konstruktiv hamkorlik qilish bo'yicha o'zlarining institutsional vakolatlarini

bajarishda qo'llab-quvvatlanadi. Gender harakatlar rejasi 2021-2025<sup>1</sup> (GHR III), tavsiyalar va ustuvorliklar Yevropa Ittifoqining fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlashi va u bilan hamkorligiga kiritiladi.

## 5.2 Hamkorlik qilish mexanizmi

O'zbekiston hukumatining ambitsiyali o'zgarishlar dasturi siyosiy liberallashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya va bozor islohotlarini joriy etishga qaratilgan. Bu, ayniqsa, xalqaro me'yorlarga moslashish, huquqlarga asoslangan yondashuvlar va o'tish davrini boshqarish bilan bog'liq bo'lib, ular o'zbek hamkorlari tomonidan yuqori baholanadi va YERSA muzokaralarida o'z aksini topadi. Shunday qilib, hamkorlik qilish mexanizmi oltita maqsadga xizmat qiladi:

- Yevropa texnik yordami va ekspertizasidan foydalanish, shu jumladan korxonava tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va Texnik yordam va axborot almashinuvi (TAIEX) orqali imkoniyatlarni oshirishni qo'llab-quvvatlash, jumladan raqamlashtirish tashabbuslarini ilgari surish. Bu O'zbekistonning YERCA va GSP+ni amalga oshirishini qo'llab-quvvatlashga ham taalluqlidir.
- hukumat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati bilan tuzilgan muloqotga ko'maklashish. KYIDni amalga oshirish uchun budjetni qo'llab-quvvatlashdan sezilarli darajada foydalanish iqtisodiy islohotlarning hisobot beruvchi va vakillik hukumati tamoyillarini ilgari surish va amalga oshirish bilan birga olib borilishini ta'minlash uchun izchil va samarali ishtirok etishni talab qiladi.
- mahalliy yoshlar bilan muloqotni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, ularni xabardorlikdarajasini oshirish tadbirlari va Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan loyiha va dasturlarga jalb qilish hamda milliy qarorlar qabul qilish jarayonlari va tashabbuslarida faol rol o'ynashda ularning huquqlarini kengaytirish.

<sup>1</sup> YEVROPA PARLAMENTI VA KENGASHIGA QO'SHMA MUROJAAT YEVROPA ITTIFOQINING GENDER HARAKAT REJASI (GAP) III – YEVROPA ITTIFOQINING TASHQI HARAKATLARIDA GENDER TENGLIGI VA AYOLLAR HUQUQINI KENGAYTIRISH BO'YICHA AMBISIALI KUN TARTIBI, JOIN (2020) 17 final




- qo'shma dasturlashni amalga oshirish va Yevropaguruhi tashabbuslarini mamlakat darajasida muvofiqlashtirish.
- O'zbekistonning Gorizont Yevropa va ERASMUS+ kabi Yevropa Ittifoqi dasturlarida ishtirok etishini, shuningdek, Yevropa Ittifoqining Koinot dasturi bilan hamkorlikni rag'batlantirish. Muntazam bilim va ma'lumotlar almashinuvini ta'minlash uchun Yevropa Ittifoqining boshqa agentliklari bilan aloqa o'rnatishva hamkorlikni qo'llab-quvvatlash bir xil darajada muhim bo'ladi.
- Yevropa Ittifoqi, GSP+ va bo'lajak YERCA nufuzini oshiradigan hamda Yevropa Ittifoqining siyosat ustuvorliklari va xalqaro demokratiya me'yorlarini ilgari suradigan xalq diplomatiyasini, shu jumladan madaniy diplomatiyani va aloqa oynasini ta'minlash.
- Yevropa Ittifoqi hamkorligini tayyorlash, amalga oshirish va baholashni, shu jumladan texnik yordam orqali qo'llab-quvvatlash.

## 6 | Moliyaviy tahlil

Ushbu KYIDning amal qilish muddati yetti yil bo'lsa-da, O'zbekiston va quyidagi jadvalda keltirilgan har bir ustuvor yo'nalish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari bo'yicha indikativ ajratmalar faqat 2021-2024 yillarga mo'ljallangan.

2025-2027 yillar uchun indikativ ajratmalar, shuningdek, ushbu KYIDning boshqa muhim elementlarigakiritilishi mumkin bo'lgan o'zgartirishlar 2024 yilda bo'lib o'tishi rejalashtirilgan o'rta muddatli ko'rib chiqishdan so'ng YEI qaroriga bog'liq bo'ladi. Ushbu qarorni qabul qilishdan oldin ushbu KYIDning bajarilishini ko'rib chiqish, unda O'zbekistonning rasmiy organlari va boshqa manfaatdor tomonlari bilan muloqot o'tkazilishi kerak.

**2021-2024 yillarga mo'ljallangan mablag' = 76 million yevro**





**Yevropa Ittifoqining O'zbekiston  
Respublikasidagi Delegatsiyasi**

100084, O'zbekiston, Toshkent sh.,  
Xalqaro Biznes Markazi,  
Amir Temur shox ko'chasi, 107B

+998 71 120 16 01/02/03/04  
[delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu](mailto:delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu)